E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

KORPUS TILSHUNOSLIGINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI TARIXIDAN

Kadirova M.

Termiz davlat pedagogika instituti kafedra mudiri

Qarorova Dilsora

Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

qarorovadilsora@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada korpus tilshunosligining qanday paydo bo‘lganligi va uning rivojlanish tarixi, O‘zbekistonda lingvistika sohasida korpusning ingliz tilini o‘qitishda qo‘llanilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar

Korpus, korpus lingvistikasi, korpusning rivojlanishi, o’zbekistonda korpusdan foydalanish.

Аннотация

В данной статье говорится о возникновении корпусной лингвистики и истории ее развития, использовании корпусной лингвистики в Узбекистане при обучении английскому языку.

Ключевые слова

Корпус, корпусная лингвистика, развитие корпуса, использование корпуса в Узбекистане.

Annotation

In this article, it is discussed about the emergence of corpus linguistics and the history of its development, the use of corpus in the field of linguistics in Uzbekistan in teaching English.

Key words

Corpus, corpus linguistics, corpus development, the usage of corpus in Uzbekistan.

XXI asr texnologiyalar asri hisoblanib, hayotimizning har jabhasida zamonaviy texnikalarni istagancha uchratishimiz mumkin. Shu jumaldan, bu rivojlanish lingvistika- tilshunoslik sohasini ham chetlab o’tmadi. Korpus lingvistikasi shular jumlasidandir. Shu o’rinda, Korpus nima degan haqli savol tug’iladi. **Korpus** katta hajmli va tizimga solingan matnlar to‘plamidan iborat til manbasi hisoblanadi. Korpus tilshunosligida ular ma’lum bir til doirasida yoki tilning ma’lum bo‘limida statistik tahlillarni amalga oshirish, qarashlarni, tildagi hodisalar yoki nazariy qoidalarni tekshirish uchun foydalaniladi. [https://shokiryuldash.blogspot.com/2020/06/korpus-nima-korpus-tilshunosligi.html]. Korpus tilshunosligi XX asr boshlariga borib taqaladigan uzoq tarixga ega. Biroq, uning rivojlanishi va mashhurligi 1960-yillarda komputer davrining paydo bo'lishi bilan jadal rivojlandi, natijada esa katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish qobiliyati sezilarli darajada osonlashdi. Masalan, Korpus lingvistikasidagi mashhur loyihalardan biri 1960-yillarda Braun universitetida yaratilgan bo‘lib, Amerika inglizcha matnining bir million so‘zini o‘z ichiga

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

olgan Braun korpusi edi. Yillar davomida komputer afzalliklari va dasturiy ta'minotni ishlab chiqishdagi yutuqlar tadqiqotchilarga kattaroq va xilma-xil korpuslarni yaratish va tekshirish imkonini berdi. Natijada, korpus lingvistikasi lingvistik tadqiqotlarning ajralmas qismiga aylandi va hozirda grammatika, sintaksis, semantika, pragmatika va sotsiolingvistika kabi ko'plab sohalarda qo'llaniladi.

Vasliddinova Kamolaning fikriga ko'ra, korpus nafaqat har bir tilning milliyligini saqlab qolishda, uning bevosita tabiiyligini asrab keyingi avlodlarga yetkazib berishda, balki ana shu tilda yaratilgan milliy, madaniy va ilmiy boyliklarni jahon hamjamiyatiga sof holda, bevosita taqdim etishda xizmat ko'rsatuvchi elektron xazina, ya'ni elektron manbadir. E'tibor qaratsak, butun dunyoda rivojlangan mamlakatlarning tili dunyo sohasida keng ommalashib ulgurgani va bevosita turli rivojlangan sohalarda yangi paydo bo'layotgan terminlar ana shu tillardagi so'zlar bilan nomlanib, hattoki davlatlarning milliy tillariga o'zlashtirilayotgani ana shu tillarning allaqachon avtomatlashtirib, turli millat vakillari foydalana olishi uchun qulaylashtirib quyilgani bilan izohlash mumkin. Masalan: biznes, trening, hotel, park, fast food, kafe, restoran, saboy, integrallashmoq, publika, stil, okey va boshqa o'nlab yangi so'zlar allaqachon o'zbek tili iste'molida faol hisoblanib, hattoki ommaviy axborot vositalarida ham muloqot jarayonida bevosita va bilvosita foydalaniladi.[KORPUS LINGVISTIKASI VA DUNYO TILSHUNOSLIGIDA KORPUSGA OID NAZARIYA VA TADQIQOTLAR Vasliddinova Kamola Qodirjon qizi «KOMPYUTER LINGVISTIKASINING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI - CTCL.2023» mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman www.myscience.uz]

Zamoniy texnologiyalar ulkan imkoniyatlar eshigini ochar ekan, boshqa til egalari o'zlarining milliy til korpusini yaratishmoqda. 'Masalan, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan Britaniya milliy korpusi (BMK)dir. Aksariyat milliy korpuslar mazkur loyiha asosida shakllangan. Shuningdek, Praganing Karlova universiteti tomonidan tuzilgan Chex milliy korpusi ham slavyan tillari orasida ajralib turadi.'

[TILINING MILLIY KORPUSINI YARATISH KORPUSINI YARATISH MUAMMOLARI. Тилнинг миллий корпусини яратиш муаммолари. December 2020 Azamat Primov Urgench State University]. Shunday ekan til mutaxassislari oldida milliy korpusimizni yaratish va rivojlantirish kabi muhim masala turibdi.Milliy korpusni yaratish va rivojlantirish esa bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib bir qator universitetlarda shu masala bo'yicha bir qator ilmiy ishlar, magistrlik dessertatsiyalari yozilyapti.

Shahlo Hamroyeva: — Milliy til korpusi — til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida elektron qidiruv imkoniyati mavjud tizim, tabiiy tilning raqamlashgan yozma va og'zaki matnlar jamlanmasi. Milliy korpus — til birli gining o'zgarishi, eskirishi, yangilarining paydo bo'lishi, ma'nosining kengayishi va torayishi, yangi iboralarning paydo bo'lishini kuzatish, an'anaviy va zamonaviy lug'atlar tuzishda keng imkoniyatli dastur lashtirilgan tizim. Korpusdagi milliy so'zi nafaqat tilning, balki korpus tuzilishi va tarkibining ham o'ziga xosligini anglatadi. Milliy korpusning boshqa tur til korpuslaridan farqi ta'limiy korpus, mualliflik korpusi, poetik matnlar korpusi, ilmiy va rasmiy matnlar korpusi, og'zaki matnlar, badiiy matnlar va gazetalar hamda dialektlar korpusi kabi ichki korpuslarni o'z tarkibiga qamrab olganligi bilan belgilanadi [Shahlo Hamroyeva —| Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Ma'rifat 2021-yil 11-avgust, № 32 (9357) p4]

References:

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

1. https://shokiryuldash.blogspot.com/2020/06/korpus-nima-korpus-tilshunosligi.html
2. KORPUS LINGVISTIKASI VA DUNYO TILSHUNOSLIGIDA KORPUSGA OID NAZARIYA VA TADQIQOTLAR Vasliddinova Kamola Qodirjon qizi «KOMPYUTER LINGVISTIKASINING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI - CTCL.2023» mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman www.myscience.uz
3. TILINING MILLIY KORPUSINI YARATISH KORPUSINI YARATISH MUAMMOLARI. Тилнинг миллий корпусини яратиш муаммолари. December 2020 Azamat Primov Urgench State University
4. Shahlo Hamroyeva —| Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Ma’rifat 2021-yil 11-avgust, № 32 (9357) p4

WORDLY
KNOWLEDGE